



MEHNAT/LABOUR KONTSEPTINING QIYOSIY TADQIQOT METODLARI  
(QORAQALPOQ VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA)

Aysuliy Qutlimuratova

*QDU doktoranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada qoraqalpoq va ingliz tillarida “mehnat/labour” konseptining mazmuniy tarkibi, leksik-semantik xususiyatlari hamda ularni tadqiq etishda qo‘llanilgan metodologik yondashuvlar tahlil qilinadi. Mehnat tushunchasining ikki tildagi konseptual maydoni qiyosiy ravishda o‘rganilib, semantik, etimologik va kognitiv tahlil metodlarining imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqot davomida mehnatga oid birliklarning ma‘no doirasi, milliy-madaniy omillar ta‘siri va konseptning lingvomadaniy ko‘rinishlari aniqlangan. Maqola natijalari mehnat konseptining ikki tilli talqinini aniqlashda ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega.*

**Kalit so‘zlar:** *mehnat, qiyosiy tahlil, konsept, semantika, lingvomadaniyat, metodologiya, kognitiv yondashuv.*

**Annotation:** *This article examines the semantic structure, lexical features, and methodological approaches applied in the comparative study of the concept “mehnat/labour” in Karakalpak and English. The conceptual domain of labour is analyzed across both languages using semantic, etymological, and cognitive methods. The study reveals the meaning layers of labour-related units, the influence of cultural factors, and the linguocultural characteristics of the concept. The findings contribute to both theoretical and practical understanding of how the concept of labour is interpreted in two languages.*

**Keywords:** *labour, comparative analysis, concept, semantics, linguoculture, methodology, cognitive approach.*

“Mehnat/labour” kontsepti hozirgi tilshunoslikdagi ahamiyatli jihatlaridan biridir. Chunki, xalqning yashash sharoyiti, turmush tarzini tahlil qilishda eng avvalo kasblarga va ularning o‘ziga xos xususiyatlariga diqqat qaratiladi. Bu leksik birliklarni chuqur va aniq tahlil qilish uchun qo‘llaniladigan tadqiqot metodlari kerak bo‘lib, ular quyidagilar hisoblanadi:

Qiyosiy-tahliliy usul ingliz va qoraqalpoq tillaridagi mehnat faoliyatiga oid birliklar o‘rtasidagi semantik, madaniy va struktur o‘xshashlik hamda farqlarni ochib berishda eng samarali usul hisoblanadi. Shu qatori quyidagi usullar ham tilshunoslikning kontseptologik tadqiqotlarida asosan Mehnat/labour kontseptlarini tahlil qilishda faol ishtirok etadi:

*Lingvomadaniy metod* - til va madaniyatning o‘zaro aloqasi asosida birliklarni tahlil qilishdir. Bu metod orqali mehnatga oid leksik birliklarning xalq ongida qanday madaniy mazmun-mohiyatga ega ekanligini, kasblarga bo‘lgan ijtimoiy munosabatlar, qadriyatlar tizimidagi o‘rni, diniy yoki urf-odatlardagi aks-ma‘nosi aniqlanadi[1]. Masalan, "temirshi" so‘zi qoraqalpoq tilida qadimiy hunarmandchilik an‘analaridan, jamiyatda hurmat qozongan



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



kasblardan birini bildirsa, ingliz tilidagi "blacksmith" ham o'rta asrlarda markaziy ijtimoiy rolga ega kasb sifatida tasvirlanadi. Shu bilan birga, "breadwinner" (oila boqadigan kishi) va qoraqalpoq tilidagi "nan tabıwshı" kabi so'z birikmalari lingvomadaniy jihatdan mehnat va oilaga tegishli mas'uliyat o'rtasidagi kuchli mental aloqani ko'rsatadi. Bu metod, ayniqsa, millatlararo semantik farqlarni va ularning madaniy motivatsiyalarini tushunishda zarur metod sifatida xizmat qiladi.

*Semantik-komponent tahlil* - ma'noli elementlar asosida struktur va leksik birliklarni o'rganish. Bu usul orqali har bir leksik birikma tahlil qilinadi va uning tarkibida nechta asosiy semantik komponent borligi aniqlanadi. Misol uchun, qoraqalpoq tilidagi "temirchi" so'zi "temir" (qurol), "-chi" (ijrochi) komponentlaridan iborat bo'lib, bu birlik mehnat quroli bilan shug'ullanadigan ijrochini anglatadi. Ingliz tilida esa "blacksmith" so'zida "black" (sanoat yoki g'ovak metallarga belgi) va "smith" (ishlaydigan) komponentlari tarkibida uchraydi. Bu metod orqali o'xshashliklar (ijrochi komponent mavjudligi) va farqlar (metaforik belgining tilga tegishliligi) aniqlanadi. Shu bilan birga, "worker," "builder," "teacher" kabi ingliz tilidagi birliklar ham asosiy sema (ish turi) va grammatik affiks (er) orqali shakllangan.

Bu tahlil turli tillardagi leksik birliklar tarkibidagi asosiy va ikkilamchi semantik qatlamlarni aniqlashga yordam beradi.

*Strukturaviy-morfologik tahlil* - so'z yasash, qo'shimchalar orqali kasb-hunar nomlarining hosil bo'lishini o'rganishga qaratilgan usul. Bu tahlil til tizimidagi affiksial modellar, so'z yasovchi birliklar, kompozitsion va derivatsion jarayonlarni o'z ichiga oladi. Masalan, qoraqalpoq tilida "temirchi," "o'roqchi," "sartarosh," "kulol" kabi kasb nomlari -kech, -chi, -er kabi affikslar bilan yasaladi.

Ingliz tilida esa "teacher," "builder," "worker," "blacksmith" kabi so'zlar -er, -ist, -ian kabi qo'shimchalar yoki kompozit tuzilma (masalan, black+smith) orqali yasaladi. Ushbu tahlil yordamida ikki tildagi kasb-hunar nomlarining struktur modeli, yasovchi elementlari, morfologik barqarorligi va o'zgaruvchanligi aniqlanadi. Strukturaviy-morfologik tahlil leksik birliklarning zamonaviy va tarixiy shakllarini taqqoslashda, ularning so'z yasash teng.

*Diskursiv metod* - mehnat faoliyatiga oid birliklarning siyosiy, ilmiy, publitsistik va madaniy kontekstlarda qanday qo'llanilishini aniqlashga qaratilgan yondashuvdir. Bu metodda til birliklari qanday nutqiy aktlarda, qanday maqsadda va kim tomonidan ishlatilishiga e'tibor qaratiladi [2]. Masalan, ingliz tilida "working class" yoki "labour market" iboralari siyosiy diskursda iqtisodiy tabaqalarga bo'linish va ijtimoiy tengsizlikni ifodalash, qoraqalpoq tilida "halol mehnat," "xalq xizmati" kabi birliklar ijtimoiy-siyosiy va madaniy ma'noga ega bo'lgan iboralar hisoblanadi. Diskursiv tahlil orqali leksik birliklarning turli ijtimoiy guruhlar tilida qanday aytilishi va ular orqali ijtimoiy identifikatsiya, qadriyatlar va munosabatlarning qanday aks etishini aniqlash mumkin.

*Korpus tahlili* - milliy va zamonaviy matnlar asosida statistik tahlil qilish.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Bu usul orqali ingliz va qoraqalpoq tillarida mehnat faoliyatiga oid leksik birliklarning qo'llanish chastotasi, kontekstual aloqadorligi, kollokatsiyalari, stilistik registrlari va stilistik funksiyalari aniqlanadi. Masalan, ingliz tilida "labour," "employee," "blue-collar," "occupation" kabi birliklar COCA yoki British National Corpus asosida ko'pincha qanday matnlarda qo'llanishi va qanday so'zlar bilan bog'lanishi aniqlanadi[5].

Qoraqalpoq tilida esa milliy matnlar korpusi bo'lmaganligi sababli ular badiiy matn asosida aniqlanadi, "mehnatkash," "ishchi," "halol mehnatkash," "ustoz," "ustaxon" kabi birliklarning ijtimoiy, publitsistik va badiiy matnlardagi funksional holati o'rganiladi. Korpus tahlili natijalari raqamli ma'lumotlarga asoslangan holda til birliklarining faol yoki passiv qo'llanilishini, ularning konnotatsion xarakterini va zamonaviy semantik o'zgarishlarini tahlil qilish imkonini beradi.

Shunday qilib, til tizimining lingvomadaniy, semantik va struktur guruhlanishi mehnat faoliyatiga oid birliklar asosida tahlil qilinishi orqali tildagi kasb-hunar madaniyati, ijtimoiy hodisalar va tarixiy tafakkur asosida aniqlanadi. Ingliz va qoraqalpoq tillari materiallari asosida olib borilgan qiyosiy tahlillar, har ikki til tizimida mehnatga oid birliklarning madaniy, semantik va morfologik jihatdan zarur funksiyalarga ega ekanligini ko'rsatadi (qarang: jadval 2.1).

Turli tadqiqot metodlarining uyg'un qo'llanilishi bu leksik qatlamning har tomonlama tahliliga imkoniyat beradi. Bu esa zamonaviy tilshunoslik uchun nafaqat nazariy ma'lumot beradi, balki amaliy jihatdan, xususan tilni o'qitish, tarjima va sotsiolingvistik monitoring sohalarida ham dolzarb hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ne'matov H., Mengliyev B. Lingvistik tadqiqot metodikasi, metodologiyasi va metodlari. –T., 2010.
2. Философия. Наука. Методология. –М.: Наука, 1980. –С. 8.
3. Неъматов Х., Йўлдошева Д. Ўзбек тилшунослиги. Вухоро davlat universiteti ilmiy axboroti, 2011 yil 3-son.
4. Неъматов Х., Ўзбек тилшунослигида формал, структурал ва субстанциал йўналишлар хусусида. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 2009 yil 4- son, - B. 35-41.)
5. Taylor A. (1931) The Proverbs. Cambridge, MA: Harvard University Press.
6. Wolfson N. (1989). Perspectives: Sociolinguistics and TESOL. New YORK: Newbury House.